

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “TURIZM” SOHASIGA OID LUG‘ATLAR
YARATISH MASALALARI.

Hoshimova Nargiza Abdullayevna

Xoldorova Hilola Haydarali qizi

*Farg‘ona davlat universiteti**Ingliz tili va adabiyoti fakulteti**Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrası*

Abstrakt: Fan sohalarining rivojlanishi, yangi fan tarmoq va yo‘nalishlarining vujudga kelishi, shubhasiz, mavjud terminlar sistemasining takomillashuviga, yangi terminlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Til terminlarining leksikografiyasi tarkibi o‘z rivojlanishi va boyish, o‘zgarish jarayonida murakkab ichki qonuniyatlarga amal qiladi. Ushbu qonuniyatlarning xarakterini har bir tilning lengvistik tabiati, grammatik strukturasi, til rivojidagi tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, tilning tarqalishi doirasi, darajasi, shuningdek, bu tilning boshqa qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan o‘zaro aloqasi va hamkorligi natijasida yuzaga keluvchi xususiyatlar belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Termin, turistik nutq, lug‘at turlari, leksikografiya, lug‘at mikrostrukturasi, tezaures lug‘atlar.

Abstract: The development of scientific fields, the emergence of new scientific branches and directions, undoubtedly leads to the improvement of the existing system of terms and the emergence of new terms. The composition of the lexicography of language terms follows complex internal laws in the process of its development, enrichment, and change. The nature of these laws is determined by the linguistic nature of each language, grammatical structure, historical processes in the development of the language, social environment, the scope and level of the language's spread, as well as the characteristics that arise as a result of the interaction and cooperation of this language with other related and non-related languages.\

Key words: Terminology, tourist speech, vocabulary types, lexicography, vocabulary microstructure, thesaurus dictionaries.

KIRISH. Bugungi kunda tilshunoslikning leksikografiya sohasi ham jadal sur‘atda o‘sib bormoqda. Bunday ildam rivojlanishlar o‘sib borgani sayin, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga extiyoj sezilib boradi. Bunday tadqiqotlar yildan yilgan ko‘payib bormoqda. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri bu turli xildagi – tajriba, izohli, terminologik va tarixiy-etimologik lug‘atlar tuzishdan iborat. Terminlar asosida lug‘atlar yaratish xamda yaratilgan lug‘atlar majmuyi ko‘pchilik tilshunoslar va mutaxassislar tomonidan “*terminologik leksikografiya*” deb nomlanib kelinmoqda. Tilshunoslar A.A.Reformatskiy va A.D.Xayutinlardan so‘ng S.V.Grinov mazkur birikma terminlar o‘rniga, *leksikografiya* terminiga oxangdosh va vazifadosh bo‘lgan

terminografiya terminini qo'llashni taklif etadi va unga maxsus yoki terminologik lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti sifatida ta'rif beradi.²⁷

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Jahon tajribasidan bizga ma'lumki, Turistik nutq sohasidagi lingvistik tadqiqotlar so'nggi yillar mobaynida faol ravishda olib borilmoqda, chunki butun dunyoda jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasi ham o'z tiliga ega. Biroq, olimlar hali ham batafsil o'rganishni talab qiladigan ko'plab savollarga duch kelishmoqda. Va bunday savollardan biri sayyohlik nutqining tipologik maqomidir. Zamonaviy ilm-fanda sayyohlik so'zlashuvining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda, bu esa tadqiqot ishining tanlangan yo'nalishining ahamiyati va kengligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga sayyohlik nutqining lingvopragmatik xususiyatlarini mustaqil turdagi institutsional nutq sifatida o'rganish va tavsiflash. O'zbek tilshunos olimlari ham lug'atshunoslikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni jadallashtirishmoqda. Har bir sohaga oid maxsus so'z va iboralar, termin, atama va nomlar alohida yondoshuvni talab etishi, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash va lug'atlarda ularning talqin etilishida barcha xususiyatlarning e'tiborga olinishi mukammal lug'atlarning yaratilishiga olib keladi. Lug'atlarning barchaga tushunarli, foydalanishga qulay variantda taqdim etilishi, talqin va tavsiflarning mukammaligini ta'minlaydigan masalalar yechimiga qaratilgan tadqiqotlar ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Boshqa millat vakillari, asosan, inglizzabon sayyohlar uchun yurtimiz bo'ylab sayohatda qo'llanma bo'ladigan yuqori saviyali lug'atlarni yaratish yurtimizda turizmning istiqboldagi rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Shubhasiz, o'zbek turizm terminosistemi lug'atini hech kim mutaxassischalik a'lo darajada bajara olmaydi. Eng asosiysi yuqori funksional qiymatli tarjima lug'atlarining mavjudligi mamlakatimizga xorijiy sayyohlar oqimini yanada kengaytiradi.

Turizm mazmun-mohiyati jihatidan ildamlab borarkan, lug'atlar ham qulay ko'rinish kasb etib borishi lozim. Zamonaviy leksikografiya lug'atshunoslikning korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi bilan hamkorligini yo'lga qo'yishni taqozo etadi²⁸. Fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi rivojlanish tillar leksikonining muntazam kengayib borishi, yangi lug'aviy birliklarning qo'shilib, eskirganlarining iste'moldan chiqishini taqozo etadi. Ba'zan lug'at tarkibiga oldindan mavjud tushunchalarning yangi nomi asosida yangi birlik kirib boradi. E.A.Zemskaya "yangi so'zlar eskilari bilan umuman bog'liq bo'lmagan holda yasalganda, ularni o'zlashtirish naqadar mushkul ishga aylanishini, so'zlarning tildagi o'zaro aloqasi borliqdagi real predmet, voqea-hodisalar orasidagi munosabatning in'ikosi ekanligini" ta'kidlaydi²⁹.

²⁷ Madvaliyev A. "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari" Toshkent 2017. B-30

²⁸ Modern trends in English lexicography // <https://lektisii.org/12-3500.html>

²⁹ Земская Э.А. Как делаются слова. – Москва, 1963.

Rus tilshunosi D.S.Lotte: “.....bundan bir necha o‘n yilliklar ilgari muhokama qilgan sohalar terminosistemasiga oid muammolar bugungi zamon lug‘atchiligining og‘riqli nuqtalari bo‘lib qolmoqda”, deb e‘tirof etadi³⁰.

Shunisi aniqki, hozirgi zamon terminologik lug‘atlari bir necha guruh potensial foydalanuvchilar uchun umumiy ishlab chiqiladi. Rossenbeck o‘z asarida hattoki polifunksiyalilik belgisi bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy maqsad bo‘lishi kerakligi ham ta’kidlanadi³¹.

Lug‘atlar mikrostrukturasida har yangi tanishtirilayotgan tayanch so‘z lemma nomi bilan tilga olinib, har bir tildagi terminologik lug‘atlarda shartli belgilarni oldindan lug‘at foydalanuvchisiga tanishtirish muhim hisoblanadi.

Z.Sobirovaning “Ingliz va o‘zbek tillaridaga turizm gterminlarining tipologiyasi, o‘zaro berilishi va leksikografik talqini” nomli dissertatsiyasida quyidagicha ifodalanib ketilgan,

n. noun - so‘zning turkumi ot ekanligini ifodalaydi

adj adjective – so‘zning turkumi sifat ekanligini ifodalaydi;

adv adverb – so‘zning turkumi ravish ekanligini ifodalaydi;

attr. attributive – so‘z aniqlovchi sifatida qo‘llanishini anglatadi;

conj conjunction – bog‘lovchiga ishora qiluvchi belgi;

etc. – «va hokazo» mazmunini ifodalovchi belgi;

imp. imperative – fe’lning imperativ (buyruq mayli) shaklini ifodalovchi belgi;

shu

inf. infinitive – fe’lning harakat nomi shaklini ifodalaydi;

int interjection – so‘zning undalma vazifasida qo‘llanilishiga ishora qiladi;

n noun – so‘zning turkumi ot ekanligiga ishora kabi.”³²

Bugungi kunda har bir zamondoshimiz ingliz tilini o‘rganishni o‘z maqsadlaridan biriga aylantirgan. Shu sababdan ingliz tili sayyohlar uchun o‘lkamiz hududida turizm tovar va mahsulotlarini iste‘mol qilish, xalqimizning betakror urf-odat hamda madaniyatini o‘rganishning asosiy vositasidan biri bo‘lib maydonga chiqadi. Bunday vaziyatda chet ellik mehmonlar uchun ingliz tilining mamlakatimiz sharoitiga mos axborot – material bazasini yaratish, ya’ni, saviyasi yuqori tarjima lug‘atlarini vujudga keltirish ulkan ehtiyojga aylanib bormoqda.

O‘zbek sayyohlik terminlari o‘lkamiz hududida amalga oshiriladigan turli iqtisodiy-ijtimoiy shuningdek, milliy-madaniy tadbirlar jarayonida aloqa almashinuvining eng asosiy vositasidan biri bo‘lib xizmat qilar ekan, tashrif buyuradigan mehmonlar ham ularni ona zaminimiz sarhadlarida qo‘llarkan, shubhasiz, yaratiladigan lug‘atlar tarkibini ko‘proq milliy-madaniy terminlar tashkil etishi lozim.

³⁰ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва, 1961.

³¹ Rossenbeck K. 'Die zweisprachige Fachlexikographie in der neueren und neuesten Wörterbuchforschung, 2005.

³² Sobirova Z. Ingliz va o‘zbek tillaridaga turizm gterminlarining tipologiyasi, o‘zaro berilishi va leksikografik talqini. Aftoreferat. Buxoro 2021

Hozirgi davrda tilshunoslikda *tezauras lugʻat* (grekcha thesayros³³ - manba) yoki *ideografik lugʻat* tuzish masalasi ustida ish olib borilmoqda. Tezauras lugʻat maʼlum soʻz bilan maʼnolari bogʻlanuvchi barcha soʻzlarni qamrab oladi.

Tezaures (yun. thesauros — xazina, boylik) degan maʼnoni ifodalaydi.³⁴ Muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla toʻkis aks ettiradigan lugʻat. Jonli tilning lugʻat tarkibi doimo oʻzgarib turishi sababli tezaurus faqat oʻlik tillar materiallari asosida yoki oldindan belgilab olingan yozma yodgorliklar uchun tuzilishi mumkin. Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksikani yoppasiga terib olishga asoslangan lugʻatlar (masalan yunon, lotin tillariga tuzilgan lugʻatlar) shunday lugʻatlardan hisoblanadi. Turkiyshunoslikda A. K. Borovkov, E. I. Fozilov, A. Najiblarning 13—14-asrlar turkiy yozma yodgorliklari asosida tuzilgan lugʻatlari ham glossariy, ham tezaurus belgilariga ega. Soʻz tanlash prinsipiga koʻra yozuvchilar yoki ular ijodiga mansub ayrim asar tili boʻyicha tuzilgan lugʻatlar ham tezaurus hisoblanadi;

XULOSA. Biron bir ilm-fan sohasiga oid lugʻaviy birlik (soʻz) lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar oʻrtasidagi semantik (turjins, sinonimik va b.) munosabatlar aks ettirilgan ideografik lugʻat. Bunda soʻzlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador soʻzlarning barchasi bir joyda beriladi: kerakli soʻzlar tushunchaga qarab qidiriladi. Nazariy jihatdan tezaurus leksika semantik tizimining ehtimoliy modellaridan biridir. Amadda undan yozuvchi individual lugʻatini boyitish vositasi sifatida foydalaniladi.³⁵

Tezaurus ichida biz bir nechta boʻlimlarni topishimiz mumkin: misol uchun, bitta atamani alifbo tartibida ajratish mumkin, boshqasida esa ularni guruhlash mumkin.³⁶ Biz ham bugungi kunda oʻzbek va ingliz tillaridagi turizm sohasiga oid soʻzlardan iborat boʻlgan tezauras lugʻat ustida ish olib bormoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Madvaliyev A. “Oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari” Toshkent 2017.B-3 Abdullayevna, K. N. (2022). Aphorisms in Different Language Syste Linguoculturological Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 325-328.
2. Rossenbeck K. 'Die zweisprachige Fachlexikographie in der neueren und neuesten Wörterbuchforschung, 2005.
3. Sobirova Z. Ingliz va oʻzbek tillaridagi turizm gterminlarining tipologiyasi, oʻzaro berilishi va leksikografik talqini. Aftoreferat. Buxoro 2021

³³ <http://etymonline.com>

³⁴ Uz.maywoodcuesd.org

³⁵ <https://qomus.info/oz> onlayn ensiklopediya

³⁶ <https://uz.erf-est.org/>

4. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
5. Mirzayev, A., & Oripova, S. (2022). COMMUNICATIVE METHOD–A NEW APPROACH IN THE PRACTICE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 1(B6), 778-783.
6. Abdumutaljonovna, P. S. (2022). Main Characteristics of Advertising Discourse in Modern Linguistics. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 173-176.
7. <http://etymonline.com>
8. Uz.maywoodcuesd.org
9. <https://qomus.info/oz> onlayn ensiklopediya
10. <https://uz.erf-est.org/>